

B A Y O N N O M A S I № 6

9.12.2024 yil

Denov tumani

Qatnashdilar: "Xorijiy til va adabiyoti" quyi kurslar kafedrası mudiri V. Tangriyev fan o'qituvchilari Temirova M, Sadikov T, V. Tangriyev, Sobirjonova M, Maxsumov va boshqalar.

K U N T A R T I B I:

- Ingliz tili fani o'qituvchisi G.Mirzayevaning "Climate change" mavzusidagi ochiq dars muhokamasi.

Eshitildi:

Yig'ilishni "Xorijiy til va adabiyoti" quyi kurslar kafedrası mudiri V. Tangriyev kirish so'zi bilan ochdi va bugungi yig'ilishda ingliz tili fani o'qituvchisi G.Mirzayevaning 2024 yil 2- dekabrdagi Xorijiy til va adabiyoti yo'nalishi 104-guruhda o'tkazilgan "Climate change" mavzusidagi ochiq dars mashg'uloti muhokama qilinishini ta'kidlab o'tdi. U o'z so'zida ochiq dars mashg'uloti mavzusi to'g'ri tanlanganligini, dars reja asosida o'tilganligini aytib o'tdi.

Shuningdek, ingliz tili fani o'qituvchisi Sadikov T, ochiq darsda qo'yilgan yutuq va kamchiliklarni ta'kidlab o'tdi, seminar mashg'uloti davomida o'z munosabatini bildirib, quyidagilarni bayon qildi: Dars jarayoni to'g'ri tashkil qilinganligi, dars davomida, ya'ni "Individual work, pair work va group work" dan darsning asosiy qismida foydalanish muhim ahamiyatga ega ekanligini ikki guruh a'naviy emas, balki interaktiv metodlardan foydalangan holda darsni tashkil etish mumkin ekanligi aytili. Mavzuga doir taqdimotdan, video materiallardan, mustahkamlovchi savollardan, tarqatma materiallardan, ko'rgazmali qurollardan, vaqtdan unumli foydalanganligini, hamda darsning kirish qismini qorbobo va qorqizning chiqishlarini alohida ta'kidlab o'tdi.

Shundan keyin, ingliz tili fani o'qituvchisi Temirova M. so'zga chiqib quyidagilarni ta'kidlab o'tdi: «Dars yaxshi tashkil qilindi, o'tilgan mavzular takrorlandi, vazifa tarqatma materiallar asosida so'raldi, savol-javoblar asosida talabalar baholandi. Yangi mavzuni reja asosida talabalar guruhlarga bo'lingan holda bayon qilib berdi. O'qituvchi ya'ngi mavzuni to'ldirdi. Dars jarayonida turli xil o'yinlardan foydalanib, talabalarni darsga qiziqтира oldi. Demak, o'qituvchi darsga har tomonlama puxta tayyorgarlik ko'rgan. Shuning uchun bu darsni ijobiy deb baholayman». Dars ana shu sifat bosqichiga mos ravishda tashkil etilgan. Ma'lumotlar tizimli, ilmiy va tushunarli bayon etildi. Darsda yuzaga kelgan ayrim kamchiliklar ta'kidlandi va bartaraf etishi tushuntirildi.

Yuqorida bildirilgan fikr va mulohazalarni inobatga olib kafedra yig'ilishi quyidagicha

QAROR QILADI
Ingliz tili fani o'qituvchisi G.Mirzayevaning "Climate change" mavzusidagi ochiq darsi DTS talablariga to'liq javob beradi deb topilsin.
G.Mirzayevaning "Climate change" mavzusidagi ochiq ijobiy baho bilan baholansin.

Yig'ilish raisi:

V. Tangriyev

Kotibi:

M. Temirova

DEMO LESSON

Theme: Climate Change

Date: 02.12.24

Time: 10.00

Group: 104

Room: 124

Teacher: G.Mirzayeva

